



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

2023-yil 24-oktabr, seshanba,

126 (23.847)-son

KUN
HIKMATI

Savodsiz
kishi kim nima
desa, ishonib,
ergashib
ketaveradi

O'tgan asr bosqlarida ma'rifatparvar jadid bobolarimiz "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya asosida maydonga chiqib, xalqimizni mustamlaka zulmidan xalos qilish, uni zamonaviy ilm-fan, kasb-hunar va madaniyatga oshno etish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan edilar.

Ana shunday mushtarak maqsadlar, umummilliy birlik va ahillik bugun biz uchun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi o'ta keskin va tahlilikli zamonda faqatgina shu asosda o'z milliy manfaatlarmizni qat'iy himoya qilishga, jumladan, ona tilimizni asrab-avaylash va boyitish, uni ilm-fan, iqtisodiyot, ta'lif, tibbiyot, axborot-kommunikatsiya, diplomatiya va boshqa muhim yo'naliishlarda ta'sirchan muloqot vositasiga aylantirib, taraqqiyot sur'atlariga uyg'un holda rivojlantirishga, xalqaro nufuzini munosib darajaga ko'tarishga erisha olamiz.

Binobarin, ulug' shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, "Ona tili – umummilliy mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy bo'lib, bu yolg'iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi" ekanini doimo yodda tutishimiz lozim.

Shavkat MIRZIYOYEV.

Davlat tilini targ'ib qilish

shu jamiyatda yashayotgan
har bir fuqaroga daxldor ish

O'zbek tili bayrami munosabati bilan
Samarqand shahridagi markazi istirohat bog'ida ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.
Davlat tashkilotlari hamda ta'lif
muassasalari jamoalari buyuk mutafakkir shoir, o'zbek adabiy tilining
asoschisi Alisher Navoiy haykali po-yiga gullar qo'ydi.

Shoir haykali poyida tashkil etilgan
adabiy-ma'rifiy tadbirda tilshunos olimlar,
shoir va yozuvchilar tilimizning qadr-qimmati
haqida gapirib, yig'ilganlarni bayram bilan
tabriklandi.

Tadbirda viloyatimizda o'zbek tilining
davlat tili sifatida nufuzini oshirishdagi faoliyi
uchun bir guruh ziyojolar viloyat hokimligining
faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alarini
bilan taqdirlandi.



- Viloyatimizdagagi tashkilot va muassasalarda davlat tilida ish yuritish holatini o'rganib, yo'l qo'yilayotgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tushuntirish ishlarni olib boryapmiz, - deydi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o'zbek tilini o'qitish kafedrasi katta o'qituvchisi Abdumalik Qurbanov. – Bayram arafasida kamtarona mehnatimiz rag'batidan minnadar bo'ldim. Aslida davlat tilini faol targ'ib

qilish faqatgina shu jabhada faoliyat olib borayotgan mutaxassislarininggina emas, jamiyatimiz har bir a'zosiga daxldor ish.

Bayram tadbirda Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari, turli millatga mansub yoshlar o'zbek tili haqida she'rlar o'qidi. Viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan sahna ko'rinishi namoyish etildi.

Tadbirda viloyat hokimi o'rnibosari Xurshid Ochilov ishtirot etdi.

"Yashil makon"

HAR BIR OILA 20 TUPDAN KO'CHAT EKSA...

Sayyoramizning turli mintaqalarida suv tanqisligi, qurg'oqchilik kuzatilmoqda. Bular insoniyatning tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabati, suv va tuproqdan noto'g'ri foydalanishi, sanoatni rivojlantirish yo'lida tabiatga yetkazilgagan zararlar tufayli yuzaga kelmoqda. Natijada yer yuzida iqlim o'zgarishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi kuzatilmoqda. Bularning oldini olish va ekologik inqirozni yushmanatish uchun yashillikni ko'paytirish va atmosferani yaxshilash talab etiladi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 11-oktabrda o'tkazgan videoselektor yig'ilishiда bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib, muhim takliflarni bildirdi. Jumladan, yurtimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 1-dekabrgacha kuzgi ko'chat ekish ishlarni olib borish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Tashhabusdan kelib chiqib, viloyatimizdagagi mahalla faollari, nuroniylar, ziyojolar, xotin-qizlar va yoshlar vakillari "Yangi O'zbekiston – yashil makonda birga yashaylik!" degan olijanob g'oyani qo'llab-quvvatlab, viloyat ahliga murojaat yo'llashdi. Unda milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda oilada farzand dunyoga kelganida unga atab 20 tup ko'chat ekish, to'y va boshqa yaxshi kunlarda nihol ekishni an'anaga aylantirish tashhabusi bildirildi.

Shuningdek, loyiha doirasida viloyatimiz hududlarida kuz fasilda 7 million tup ko'chat ekish bo'yicha ishlarni boshlandi. Ko'chatchilik xo'jaliklari va bog'bonlarimiz tomonidan yeterli ko'chat va buta zaxirasi yaratildi.

Past Darg'om tumani hokimligi jamoasi, yoshlar yetakchilari va volontyorlar tuman hududidagi bo'sh turgan 50 sotix maydonda 500 tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazdi.

Samarcand shahridagi Qorasuv massivida

respublika oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashabbi bilan "Onalar bog'i" tashkil etildi. Imom Vose mahallasida 150 dona ko'chat ekildi.



Jinoyatchilikning oldini olishda yoshlarning o'rni bor

- Uch yildan beri shu hududa faoliyat olib boraman, - deydi Obid Salimov. - Mahallamiz 2021-yilda ikkita jinoyat sodir etilgani uchun "sariq" toifada, 2022-yilda esa jinoyatlar bittaga ko'paygani sababli "qizil" toifada edi. Bundan to'g'ri xulosa chiqarib, jinoyatlar sabablarini o'rgandik. "Kasallikni davolashdan ko'ra oldini olgan yaxshi", degan naqlga amal qilib, profilaktik tadbirlarni kuchaytirdik. Jinoyatchilikning oldini olish bir kishining ishi emas. Agar profilaktika inspektoriga mahalla faollari, nuroniylar va yoshlar yaqindan yordam bermas ekan, natijaga erishib bo'lmaydi.

U bugungi kunda profilaktika inspektorlari yaratilayotgan imkoniyatlardan mammun.

(Davomi 3-sahifada) >>>



INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK

Samarqandda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralari rahbarlarining II yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda mazkur tashkilotga a'zo davlatlar – O'zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'izistonning inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralari rahbarlari, yurtimizdagagi vazirlik, idoralari, hokimliklarning kadrlar bilan ishlash bo'linmalari rahbarlari, xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirot etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmati rivojlantirish agentligi direktorining birinchi o'rnibosari Otabek Hasanova – Olimlarning tahviliga o'ra, keyingi besh yilda salohiyatlari va professional kadrlarga talab davlat xizmatida ham, xususiy sektorda oshib boradi. Bunday sharoitda har bir davlat bu sohada o'z siyosatini yangilab boradi. Chunki yangi, raqamlashgan avlod bozorga kirib kelyapti. Ularning qarashlari va shartlari ham boshqacha. Biz bu zamonaviy kadrlarga salohiyatini namoyon qilishi, davlat va jamiyatda hayotida faol ishtirot etishi uchun imkoniyat yaratib berishimiz lozim.

- Kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish va ularni rivojlantirish borasidagi hamkorlik tashkilotning ulkan salohiyatini ro'yobga chiqarish va mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim yo'naliish hisoblanadi, – dedi Otabek Hasanov. – Olimlarning tahviliga o'ra, keyingi besh yilda salohiyatlari va professional kadrlarga talab davlat xizmatida ham, xususiy sektorda oshib boradi. Bunday sharoitda har bir davlat bu sohada o'z siyosatini yangilab boradi. Chunki yangi, raqamlashgan avlod bozorga kirib kelyapti. Ularning qarashlari va shartlari ham boshqacha. Biz bu zamonaviy kadrlarga salohiyatini namoyon qilishi, davlat va jamiyatda hayotida faol ishtirot etishi uchun imkoniyat yaratib berishimiz lozim.

O Hasanov shuningdek, o'zida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat fuqarolik xizmati tizimini ilg'or xorij tajribasi asosida isloh qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani, o'tgan yil avgust oyida "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining faoliyati haqida ma'lumot berdi.

- Tashkilotga a'zo davlatlar kadrlar siyosatiga mas'ullari o'tgan yil Istanbulda yig'ilib, inson resurslarini rivojlantirishda o'zaro tajribasi almashtirish, hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishgan edi, – deydi Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi o'rnibosari Sadi Jafarov. – O'tgan yilgi yig'ilish qarorlari va erishilgan natijalar asosida bu gal Samarqanda uchrashib, dolzlar masalalarini muhokama qilyapmiz. O'zbekiston tajribasi o'rganilmoqda. Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilganiga halil ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, inson resurslaridan samarali foydalishan va

– Samarcandda ilk bor o'tkazilayotgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas'ul idoralari rahbarlarining yig'ilishi ushbu davlatlarning mazkur yo'naliishdagi tajribasini hamda biziwdagi mahalladan respublikagacha bo'lgan tizimni o'rganish uchun quaylay maydon bo'idi, – deydi viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhni rahbari Behzod Rahmatullayev.

– Dunyodagi global mashavir jarayonida bugun muhokama etilayotgan masalalar bizning oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Muloqot natijasida qabul qilinadigan muhim qarorlar esa kelgusi faoliyatimizda dasturulmal bo'ldi, deb o'layman.

Yig'ilish doirasida ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar ham tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmati rivojlantirish agentligi Ozarbayjon Respublikasi Davlat imtiyon markazi bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzoladi.

Jinoyatchilikning oldini olishda yoshlarning o'rni bor

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).



- Mahalla osoyishtaligi yo'lida sidqidildan ishslash uchun yetari sharoit bor, - deydi O.Salimov. – Boshqa hududdan kelib faoliyat yuritayotganim uchun xizmat uyi bilan ta'minlanganman. Bu yerda o'ilam bilan yashayman. Farzandlarning ham shu mahalladagi ta'lim muassasalariga qatnaydim.

Mahalladagi shijoatlari yigitlardan iborat "Qalqon" guruhlari tashkil etilgan. Ular kechayu kunduz profilaktika inspektoriga yaqin ko'makdosh.

- Yoshlar bilan do'stlashishga, ular bilan xushmuomala bo'lishga intilaman, - deydi qahramonimiz. - Sababi, jinoyatchilikning oldini olishda ular katta kuch hisoblanadi. Bolaligida sho'x bo'lib, yetarlicha ta'lim-tarbiya ololmay, bugungi kunda o'z hayot yo'llini topishda qynalayotgan, jinoyatchilikka moyilligi bor yoshlarning bilan ko'proq ishlayman. Ularni ertangi kunga ishonch bilan yashashga chaqiraman. Ular bilan birgalikda sport mashg'ulotlarda qatnashaman.

Obid Salimov o'zi faoliyat olib borayotgan Xosa, shuningdek, Boshqo'rg'on va Boshcho'rosh mahallalarini o'z ichiga olgan ma'muriy hududda profilaktika katta inspektor hisoblanadi. Qo'shni mahallalardagi hamkasblari bilan ham hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'ygan.

To'Iqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Paraosiyo o'yinlari:

Hozircha, bitta oltin, uchta bronza medal

23-oktabr kuni Xitoyning Xanchjou shahrida boshlangan IV Paraosiyo o'yinlarida qit'aning 43 davlatidan to'rt ming naflar paraatletlar ishtiroy etmoqda. Musobaqalarda O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida 108 naflar parasporthchi 11 sport turi bo'yicha qatnashmoqda. Ular orasida 11 naflar samarqandlik parasporthchi 5 ta sport turi bo'yicha yurtimiz sharafini himoya qilmoqda.



Ayni paytda Paraosiyo o'yinlarida ishtiroy etayotgan O'zbekiston terma jamoasining ilk kungi bahslardagi medallari soni 20 ta (6 ta oltin, 6 ta kumush, 8 ta bronza)ga yetdi. Bu ko'rsatkich bilan delegatsiyamiz reytingda Xitoy va Erondan keyin uchinchi o'rinda bormoqda.

Samarqandlik parasporthchilar ilk kungi bellashuvlarida bitta oltin, uchta bronza medalni qo'lga kiritdi.

OLTIN MEDAL
- paradzyudo - Kemran Nurullayev.

BRONZA MEDAL
- parayengil atletika - Sarvar Azimov; Urganch-

bek Egammazarov.
- parataekvondo - Sanjar Muxtorov.

Vakillarimiz shaxmat, kanoe, akademik eshkak eshish, velosport, taekvondo va stol tennisi dasturlari bo'yicha ilk marotaba bahslarga kirishdi. O'q otish, stol tennisi, yengil atletika, dzyudo, taekvondo, paerlifting, velosport, kanoe, akademik eshkak eshish, suzish dasturlarida paralimpichalarimiz medallar bilan bir qatorda, kelgusi yil Parij shahrida bo'lib o'tadijan Paralimpiya o'yinlari litsenziyalari hamda reyting ochkolarini uchun ham bellashadi.

mashg'ulotim o'quvchilarda ushbu tilga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim qadam bo'ldi.

Darsni zamonaviy interfaol usullar, ko'rgazmali va tarqatma materiallar yordamida tashkil etib, barcha zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarning kasb faoliyatiga bog'lab o'tish yaxshi samara berdi. Dars davomida til bilish ko'nikmalari orqali mavzuning to'la yoritilishi mashg'ulotda o'quvchilarning ham faol ishtiroy etshini ta'minladi.

Jayrona G'OFUROVA,
Past Darg'om tumani-dagi 4-kasb-hunar maktabining rus tili o'qituvchisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

SAMARQAND VILOYATI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI JAMOAT XAVFSIZLIGI XIZMATI YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI BOSHQARMASI

25 OKTABR - ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI

bilan barcha kasbdoshlarini tabriklaydi.

Jonajon Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdek sharafli va mas'uliyatli vazifalarida ulkan zafarlar yor bo'lsin.



Nazira ZOHIDOVA



Samarqandning fidoyi ziyorolaridan biri, ta'lim faxriysi Nazira Boltayevna Zohidova 74 yoshida vafot etdi.

N.Zohidova 1949-yil 15-may kuni Samarqandda tug'ilgan. Shahardagi 21-maktabni bitirgach, Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetiga ingliz tili bo'yicha mutaxassislikni egallagan. Ko'p yillarda xalq ta'limi dargohlarida faoliyat ko'rsatgan.

Tajribali muallima kasb-hunar ta'limi tizimiga taklif etildi va qator yillarda o'qituvchi, kafedra mudiri hamda direktor o'rnibosari vazifalarida ishladi. Faoliyati davomida hamkaslariga o'rnak bo'lish barobarida mustaqil hayotga intilayotgan yoshlarning sevimli ustoziga aylandi. U kishining o'quvchilari viloyat va mamlakat miqyosidagi juda ko'ptanlovlarda, musobaqalarda g'olib chiqib, o'zi ishlayotgan bilim yurtiga obro' keltirdi. Tajribali o'qituvchining dars

va tarbiyaviy uslublari yuqori tashkilotlar tomonidan bir necha bor e'tirof etildi va ommalashtirildi.

N.Zohidova o'zi yashayotgan mahalla va oilada hani ko'pchilikka ibrat bo'lib yashadi. Turmush o'rtog'i, taniqli injefer-teknolog Rahimberdi Yusupov bilan to'rt naflar farzandni voyaga yetkazdi. Ular bugun ota-onasi kabi el xizmatida.

Nazira Boltayevna nafaqaga chiqqach ham "Nuroniy", ta'lim faxriysi sifatida turli ijtimoiy-siyosiy tadbirdirlarda faol ishtiroy etdi.

N.Zohidovaning porloq xotirasini uni bilgan, u bilan ishlagan kishilar qalbida uzoq vaqt saqlanib qolajak.

**"NURONIY" JAMG'ARMASI
SAMARQAND SHAHAR BO'LINMASI.**

DA'VOLAR BO'LSA...

Ishixon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliquov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum Mingbo耶ev Tursunbek Donayevichga (2005-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Xaliquov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishixon shaharchasi Ishixon ko'chasi, 20-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasida marhum Breslavsev Yury Vladimirovichga (2023-yil 23-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Saidova Zarina Xisrovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Ashurova Saboxatga (2022-yil 24-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Aminov Mashurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Marupov Shaxob Jumayevichga (2021-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Saidmuradov Toir Atakulovichga (2021-yil 19-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ostanova Tashniyazga (2020-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Ortiboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Is-tiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasida marhum Gaziyeva Zumratga (2010-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Rahmonov Sarvar Ne'matilloyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 60-uy.

BEKOR QILINADI
Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutidan 2017-yilda Raximov Akobir Axtamovich nomiga berilgan guvohnoma yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TO'RA HOVUZ BO'YIDAGI XONADON

... U bu xonadonga ko'p keladi. Har kelganda hayotining betakror damlarini eslaydi. Qadimiy shahar Xivaning "To'ra hovuz" bo'yalarini uzoq kezib, muqaddas ostonadan bundan 63 yil muqaddam yoshligida kurtak otgan orzularini amalga oshirish uchun ro'yi zamin sayqali Samarqand sari otlanganini ko'p eslaydi. Mehnatdan qo'llari qabariq padari buzrukvor Husin ota, mushfiq onaizori Nazira aya xuddi mana shu yerda uni katta umidlar bilan kuzatib qolishgandi.

O'shandan buyon necha bahorlar, qancha suvlari oqib o'tdi. Ammo To'ra hovuz hamon o'sha-o'sha, zabonsiz, ammo chashmaga to'la chiroyini ko'z-ko'z qilishdan, odamlarga baha berishdan to'xta-maydi.

"Ilmdan boshqa najot yo'qdirligini!". U mashoyixlarning bu naqliga amal qildi. Samarqand davlat tibbiyot institutida ishtiyoy bilan o'qidi. Olyigoh tahsilidan so'ng aspiranturada goldirishdi. Keyin esa bu boqiy shahar uning ikkinchi uyiga aylandi. O'zi saboq bergan talaba qiz Kimyoxon bilan muhabbat rishtalarini bog'lashi, birin-ketin farzandlar Nazira, Gulsara, Zafar, Alisherning dunyoga kelishi, ilmiy darajasini yoqlashi, professorlik unvonini olish uchun Moskvada amaliyat o'tashi hayotini butunlay ilm-fanga burib yubordi.

Tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universitetining patologiya-fiziologiya kafedrasi mudirligiga yetib kelgunicha, eh-he, Otoboy aka Husinov qancha zahmatlar chekkani yaratgan Ollohga va bir o'ziga ayon. Lekin po'lat o'tda, odam mehnatda toblanganidek, zahmat ortida nur porlashini bilardi.

Bugun hayotining tabarruk to'qsoninchi pallasini qarshilayotgan chog'da yana o'ziga qadrdon bo'lib qolgan chashmai To'ra hovuz bo'yida turib, bosib o'tgan umr yo'llariga bir qur nazar tashladi. Xotira uyg'onsa, go'zaldir, deganlaridek, xotira ummonidan umr mazmunini belgilovich, bir-birdan chiroyli manzaralar ko'z oldidan xuddi kino lentasidek o'ta boshladi...

O'shanda otasi, bir umr shirapazlik qilib, shu kasbdan baxt topgan Husin bobo xuddi mana shu azim joyda to'xtab, o'g'liga bir gap aytgandi.

- Odamlar muqaddas tug'ilgan joyiga mansub bo'ladi, o'sib-ulg'ayib, kamolga yetib, elini yurtga mashhur qiladilar. Sen ham shu aqidaga amal qil! Hamisha el ardog'ida bo'lishga, elning dardu tashvishi bilan yashab, og'irini yengil qilishga intil! Shundagina ikki dunyo saodatiga erishasan, inshoolloh!

Bu so'zlar ham uning yodida bir umr qoldi. Qachon so'lim hovuz bo'yalarini sayr etsa, padari buzruk vorining barhayot siyomisi, o'sha paytda aytgan gaplari yodiga keladi.

- Mana, men keldim, hovuzim. Hayotim quvonchlarini tashvishlarini senga aytgani keldim. Bu uzun hikoya, aytksam, ado bo'lmaydi. Biroq sen bariga guvohsan. Qachon ko'niglim to'lganda, senga aytardim dardlarimni. Sen mening sirdoshim, do'stu qadrdonim – senga hamon talpinaman. O'shanda ham sen bilan xayrashib, uzoq safarga – o'qishga otlangandim...

Otaboy akaning nuroni chehrasida xiyol xo'srinish, ko'zlarida sog'inch yoshlari aylandi. Mashaqqatga to'la bolalik hayoti, bugungi dorilomon kunlarga yetib kelgani xotira ko'zgusida jonlana boshladi...

- Siz talabalikka qabul qilindingiz! Shu bir og'iz huzurbaxsh so'z uning hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. Birinchi bor auditoriya ga kirgan kundan boshlab olyigohni muvaffaqiyatlarni ilmu fakurkulidan saboq oldi, tabobat bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Institutda o'qish mobaynida shuningdek, M.Samboev, M.Gabrielyan, V.Ioffe, F.Golub, N.Mirzayan, A.Magrupov, O'.Vahobova kabi olimlarning ilmu fakurkulidan saboq oldi, tabobat bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Qat'iyatli talabaning sa'y-harakatlari besamar ketmadi. 1960-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Ilmiy ishi bilan u zotiljam xastaligining rivojlanish mexanizmiga aniqlik kiritib, amaliy tibbiyot uchun muhim xulosalar berdi va ilmiy jamoatchilik e'tiboriga tushdi.

Olimning 1973-yil Moskvada himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi tanqli olimlar tomonidan yuqori baholandi.

Urganchda Toshkent davlat tibbiyot instituti filialining ochilishi vohalik ilm-fan namoyanda-

qo'yiladigan nom ekan-da, deb o'yladim. O'ktam aka bilan "Madaniyat va ma'rifat" bo'limining ikkita xonasida o'tirardik. Barsha maqolalarimni u kishiga ko'rsatib olardim. Ba'zida tushlikka ham birga chiqardik. U kishi tozalikka dada e'tibor berardi. Har bi xat, maqola, shikoyat xatlari uchun alohida papka qilib qo'yardi. Navbatchilik vaqtida, albatta, ikki qo'lida yengigacha tortilgan bog'ichli toza latta bo'lardi. Chunki bosmaxonadan olib kelganan gazetaning xomaki nusxasiga urilgan harflarning qora rangi darrov kiyimga uniqb qolardi. Xuddi novvoylarda o'xshab navbatchiligi tugaguncha qo'linan yechmasdi. Jamol Tursunov uni ko'rib, "ha, non nonishni boshladigimiz?", deb hazillashardi.

Bir kuni tushlik paytida O'ktam akadan "Domla, uyingizdagagi itingizni nomi "Qantarimi?", deb so'radi.

- Yo'q, nega bunday deyapsan? - dedi boshini ko'tarib.

- Bir maqolangizga "Qantar og'di..." deb sarlavha qo'yan ekansiz, shunga tushunmadim-da?

- Nimasiga tushunnaysan, "Qantar"ga itning nima aloqasi bor?

- Bir do'stinning iti nomi "Qantar" edi, shunga siz ham...

- Seni maktabda kim o'qitgan? - deb so'radi.

- Siz, - dedim. (Rostdan ham maktabda besh yil adabiyotidan dars bergan edi).

O'ktam akaning biror bir qichiq gap qilishdan oldin "nih" deb qo'yadigan odati bor edi. Hozir ham miyig'ida kulib, "nih" deb qo'yida, "bo'limasa, shu so'zni o'tganimda darsimga kirmagan bo'lsang kerakda-a?", deb qo'ydi.

- Qulog'imdan tortmasligingiz uchun darsingizga doim kirkaman, - dedim hayron bo'lib. Chunki u

Shu payt harbiy xizmatda birga bo'lgan toshkentlik Hasan o'rtog'imning "Qantar" degan iti bo'lgani yodimga tushdi. Har ikki gapining birida "Qantar"im juda baqvuvat itda, eng zo'rini ham giriboridan oldi", deb qo'yardi. Ha, bu itlarga yoki hayonlarga

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV


Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 445 nusxada chop etildi. Buyurtma 572. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftanining sheshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



Xorazmdan xat

ga mahalliy tibbiyot xodimlari tayyorlab berishga safarbar qilingansiz.

Marks Jumaniyovichning o'zi ham oddiy oiladan, kamtar, samimiy suhbatdosh. Darrov olimning oilaviy ahvoli, bola-chaqasi uyga muhtoj yoki yo'qligini so'radi.

- Shahar chekkarrog'ida bo'lsayam yangi kvar-tiralr bitib turidi. Tez orada uylarning birinchi kalitlari sizlarni bo'ladi. Faqat yoshlarni chugur ilmli qilib tarbiyalaylik. Bu borada biror muammo tug'ilsa, murojaat qiling.

Otaboy aka hokim huzuridan go'yo qanot bog'lab chiqdi.

Otaboy Avezovich yangi ish joyida g'ayrat va shijoat bilan ish boshlab yubordi. Avvalo, o'quv jarayonlari, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Kafedrada ilmga chanqoq yosh mutaxassis kadrlarni birlashtira boshladi, ularning qaysi yo'nalishlarga qiziqishlarigacha e'tibor qaratdi. Natijada hamma havas qilsa arziguek kafedra shakllandiki, bu o'zining mevalarini bera boshladi. Muhimi, ustozdagi mas'uliyat, qat'iyatilik, boshlagan ishni oxiriga yetkazmasdan qo'ymaslik fazilatiga uning shogirdlariga ham asta-sekin singa boshladi. Shu bilan kafedradagi ishlar ko'zga tashlana bordi.

- Domla olyigohimizda qariyb 30 yil faoliyat ko'rsatishlari davomida haqiqiy ustozga xos qirralarini namoyon qildilar, - deydi bugungi kunda Urganch tibbiyot instituti maqomini olayotqan dargohga rahbarlik qilayotgan Rashidbek Ro'ziboyev. - Ayniqsa, ustozning talabalar huzuridagi ma'ruzalar, yoshlar bilan ishish tajribalari ziga xos maktab yaratganidan dalolat beradi. Otaboy Avezovichda azmu shijoat, dadillik, ta'lili dasturlariga niyotida mas'uliyat bilan yondashishlari ilmga chanqoq yoshlarda havas va ishtiyoy uyg'otdi.

- Men ustozimning hayotni naqadar sevishi ni qadrlayman, - deydi fiziologiya va patologik fiziologiya kafedrasi katta o'qituvchisi Umida Qalandarova. - Haqiqatan ham ustozlar ko'hna mo'miylardir. Ularda aql ham, hikmat ham mujassam. Biz ana shunday yetuk ilm namoyandasining qo'lida tahlis olganimizdan doim faxrlanamiz.

Bunday iliq istaklarni olyigohdag'i ahil jamoaning har bir a'zosidan eshitish mumkin. Zero, lavhamiz qahramoni, umrini ilm-fan ravnaqiga baxshida etgan tibbiyot fanlari doktori, professor Otaboy Avezovich Husinov ana shunday ulug' e'tiroflarga loyiq va munosibdir.

Otaboy og'a ko'pgina xalqaro kongress, s'ezd va anjumanlarning ishtirokchisi. 160 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubli qo'llanmalar muallifi, bu ishlarning bir qismi chet mamlakatlarda ingliz tilida chop qilingan. Ustozning rahbarligida bitta doktorlik va 13 ta nomzodlik dissertatsiyasi yozlandi.

90 yoshli olimga "Sog'liqni saqlash a'lochisi" hamda Samarqand Davlat tibbiyot instituti ilmiy ken-gashi tavsiyasi bilan "Xizmat ko'rsatgan professor" unvoni berildi.

Odam siylangan joyda aziz, deganlaridek,

Otaboy aka hamisha elning e'tiborida va e'zozida!

"Zarafshon"ning 110 yilligi

da, dala ishlari haqida yozadigan maqolalaringga su so'zlarini ham ishlatab tur.

O'ktam Qurbonovning shu so'zlarini bir umr qu'log'inda qoldi. Bir necha bor maqolalarimda qantar og'ishi, hut kelishi, fevral - qishning so'nggi oy haqida yozganimda, albatta, uning so'zlarini yodimga tushadi.

. Oqdaryo tumani Qorateri qishlog'ida yashab o'tgan O'ktam Qurbonov qator yillarda "Oqdaryo ovozi" gazetasida muxbir, bo'lim boshligi, mas'ul kotib vazifalarida ishlagan. Keyinchalik o'n yillarda ko'proq tumanligi 32-o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyoti fanidan dars bergan. 1992 yillarda boshlab "Zarafshon" gazetasida muxbir, maxsus muxbir bo'lib ishladi. Bir necha yil davomida Samarqand davlat teleradiokompaniyasida bosh muharrirlik qildi. Ustozning oxirati obod bo'lsin!

Dilmurod TO'XTAYEV.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

25-OKTABR

O'ktama VAHODOVA – (1928-2016) Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Tera-pevt-kardiolog. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

26-OKTABR

Baxtiyor TO'RAYEV – 1963-yilda Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Teatr rassomi. O'zbekiston respublikasi san'at arbobi.

Navbatchi muharrir:

G'HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



ISSN-201667X

Saytimiza o'tich uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling

Sotuvda narxi kelishilgan holda